

**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTIDA SAMARALI LOGISTIKA
ZANJIRINI SHAKLLANTIRISH**

Otamurodov Azimjon Ikromjon o'g'li

Talaba.

Akmalov Maxmud Axmat o'g'li

Talaba.

Abduraufov Abdulla Abduvali o'g'li

Talaba.

Meliyev Shohjaxon Tursunboy o'g'li

Talaba.

Toshkent davlat agrar universiteti, TDAU, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19055371>

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilishda korporativ logistik tizimlarni shakllantirish va rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Iqtisodiy va geografik sharoitlar, transport infratuzilmasi, xalqaro standartlar va normativ-huquqiy baza asosida samarali logistika zanjirini tashkil etishning imkoniyatlari va kamchiliklari ko'rib chiqilgan. Maqolada meva-sabzavot eksportida korporativ logistikadan samarali foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari, xalqaro tajribalar va O'zbekistonning ustunliklari, xatarlari va strategiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, eksport hajmini oshirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni ta'minlash maqsadida innovatsion korporativ logistika platformalarini rivojlantirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: meva-sabzavot mahsulotlari, eksport, korporativ logistik tizim, logistika zanjiri, transport infratuzilmasi, xalqaro standartlar (ISO, Global GAP), intermodal logistika markazlari, iqtisodiy samaradorlik, MDH eksport yo'nalishlari.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы формирования и развития корпоративных логистических систем в экспорте фруктов и овощей в Узбекистане. На основе экономических и географических условий, транспортной инфраструктуры, международных стандартов и нормативно-правовой базы анализируются возможности и недостатки организации эффективной логистической цепи. Рассматриваются теоретические и практические аспекты эффективного использования корпоративной логистики в экспорте, международный опыт, сильные стороны, риски и стратегии Узбекистана. Также предложены меры по развитию инновационных корпоративных логистических платформ для увеличения объемов экспорта и повышения конкурентоспособности на международных рынках.

Ключевые слова: фрукты и овощи, экспорт, корпоративная логистическая система, логистическая цепь, транспортная инфраструктура, международные стандарты (ISO, Global GAP), интермодальные логистические центры, экономическая эффективность, экспортные направления СНГ.

Abstract. The article examines the issues of forming and developing corporate logistics systems in the export of fruits and vegetables in Uzbekistan. Based on economic and geographic conditions, transport infrastructure, international standards, and the regulatory framework, the possibilities and challenges of establishing an efficient logistics chain are analyzed.

The theoretical and practical aspects of the effective use of corporate logistics in export, international experience, Uzbekistan's strengths, risks, and strategies are discussed. Recommendations are also provided for developing innovative corporate logistics platforms to increase export volumes and enhance competitiveness in international markets.

Keywords: *fruits and vegetables, export, corporate logistics system, logistics chain, transport infrastructure, international standards (ISO, Global GAP), intermodal logistics centers, economic efficiency, CIS export directions.*

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda meva-sabzavotchilik tarmog‘ini zamonaviy talablar asosida modernizatsiya qilish va eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu jarayonlarning natijasi sifatida mamlakatimizda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash va xalqaro bozorlarga eksport qilish salohiyati sezilarli darajada oshdi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun bu o‘z navbatida jahon bozorlariga kirish, eksport operatsiyalarini samarali tashkil etish hamda logistika zanjirini takomillashtirish uchun zarur ko‘nikmalar va ishonchli axborot kanallariga ega bo‘lishni taqozo qiladi.

Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va normativ hujjatlari, jumladan:

✚ 2017 yil 2 dekabrda PQ-3422-sonli “Transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari”;

✚ 2018 yil 29 martda PF-5388-sonli “Meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari”;

✚ 2019 yil 14 martda PQ-4239-sonli “Qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari”;

✚ 2018 yil 1 martda PF-5366-sonli “Tranzitni amalga oshirish jarayonlarini soddalashtirish chora-tadbirlari”;

✚ 2019 yil 6 martda PQ-4230-sonli “Yuk va yo‘lovchi tashish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari” hamda sohadagi boshqa me‘yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lishi ko‘rsatilgan. Bu hujjatlar meva-sabzavot mahsulotlari eksportida samarali logistika zanjirini shakllantirish uchun huquqiy va tashkilotchilik asoslarni belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili. Tovar va mahsulotlarni eksport qilishda logistika xizmatidan samarali foydalanish masalalari xorijlik va mahalliy olimlar tomonidan turlicha tadqiq qilingan. Xorijiy olimlarning ta‘riflari bu sohada nazariy asoslarni belgilashda muhim ahamiyatga ega. A.N. Rodnikov (“Logistika. Terminologicheskiy slovar”) logistikani “rejalashtirish, transportda tashish, saqlash va boshqa moddiy va nomoddiy oqimlarni boshqarish, ishlab chiqarishgacha material va xomashyo harakatlarini optimallashtirish, zavodlarda qayta ishlash va tayyor mahsulotlarni iste‘molchi talabiga muvofiq yetkazib berish hamda axborotga ishlav berish” deb ta‘riflagan. T.V. Kosareva va I.G. Smirnov (“Transportnaya logistika”, 2008) logistikani “xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan moddiy, moliyaviy va axborot oqimlarini yetarli darajada va samarali boshqarish jarayoni” deb tushuntirgan. D. Bauersoks (Michigan davlat universiteti, 2018) logistik infratuzilmani “ishlab chiqarish ob‘ektlari, axborot vositalari, transport kompaniyalari, omborxonalar, yuklarni tashish va qadoqlash, yuklash-tushirish terminallari va chakana

do‘konlarga yetkazib berish jarayonlariga tegishli” deb ta’kidlab, zamonaviy logistikaga berilgan eng munosib ta’riflardan biri sifatida keltirgan.

Rezer S.M. o‘z tadqiqotlarida “mintaqaviy transport tizimlarini boshqarish, turli transport turlari o‘zaro ta’sirini tahlil qilish va yuklash ishlarini rejalashtirish metodologiyasi”ni o‘rgangan.

Xorijiy tajribadan kelib chiqib, mamlakatimizda meva-sabzavot mahsulotlari eksportida logistika xizmatidan samarali foydalanish masalalari hanuz kam tadqiq qilingan. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotning innovatsion jihatida shundaki, u O‘zbekistonning logistik salohiyatini tahlil qilib, meva-sabzavot eksportida korporativ logistikadan samarali foydalanish masalalarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Mavjud ilmiy tadqiqotlardan va amaliy tajribadan kelib chiqib, O‘zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlari eksportida korporativ logistikadan samarali foydalanish quyidagi usul va yo‘nalishlarda tadqiq etilmoqda:

✚ *tahliliy va statistik usullar – ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish, tarif va narx shakllanishini qiyosiy solishtirish, statistik ma’lumotlarni iqtisodiy jihatdan tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ma’lumotni guruxlash, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanish.*

Geografik va transport shartlari – O‘zbekistonning dengiz portlaridan uzoqda joylashganligi eksportyor va importyorlar uchun transport va logistika xarajatlarini oshiradi.

O‘zbekistonda olib kelinayotgan tovarlar kamida to‘rtta “tozalash” protsedurasidan o‘tsa, qirg‘oqbo‘yi mamlakatlarda faqat bitta jarayon talab etiladi. Chegarani kesib o‘tish nuqtalari ham kechikishlarga sabab bo‘ladi.

Korporativ logistika infratuzilmasi – so‘nggi yillarda respublikada 5 ta xalqaro logistika markazlari tashkil etildi:

- ✓ *Navoiy xalqaro intermodal logistik markazi*
- ✓ *Angren, Toshkent, Termiz va Pop logistika markazlari*

Normativ-huquqiy bazasi – respublikamizda transport-logistika sohasini tartibga soluvchi:

- ✚ *6 ta qonun,*
- ✚ *7 ta Prezident farmon va qarorlari,*
- ✚ *13 ta Vazirlar Mahkamasi qarorlari,*
- ✚ *9 tadan ortiq xalqaro konvensiyalar*

Mavjud muammolar va rivojlantirish imkoniyatlari:

✚ *intermodal logistika markazlari va turli terminallar infratuzilmasining yetarli rivojlanmaganligi;*

- ✚ *transport-ekspeditorlik xizmatlarining bir tomonlama rivojlanishi;*
- ✚ *tariflar balandligi va xususiy sektor ulushining pastligi;*
- ✚ *milliy qonunchilikda transport-logistika sohasidagi jozibadorlik darajasining pastligi;*
- ✚ *transport-logistika markazlarini muvofiqlashtirib turuvchi idoraviy tuzilmaning yo‘qligi.*

Shu bilan, O‘zbekistonda meva-sabzavot eksportida korporativ logistikadan samarali foydalanish imkoniyatlari va muammolari aniqlanib, bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning dolzarbligi va amaliy ahamiyati yanada oshadi.



1-рasm. Logistikaning dolzarbligini aniqlab beruvchi omillar

O'zbekistonning ustun tomonlari va imkoniyatlari. Meva-sabzavot mahsulotlarini jahon bozorlariga eksport qilish va logistik samaradorlikka quyidagi omillar ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

✓ *tabiiy-iqlim sharoitlari va yer resurslarining meva-sabzavot yetishtirish uchun qulayligi;*

✓ *mahsulotlar ichki iste'moldan ortiqcha bo'lib, eksport qilish imkoniyatlarining mavjudligi;*

✓ *oziq-ovqat mahsulotlari vitaminlar va mikroelementlarga boy, xush ta'mli va chiroyli ko'rinishda bo'lib, xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligi;*

✓ *aholining asrlar davomida to'plagan tajriba, malaka va ko'nikmalari;*

✓ *hukumatning e'tibori va imtiyozlari, sohaga berilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari.*

Asosiy xatarlar va kamchiliklar. Meva-sabzavot eksporti va korporativ logistik tizimni rivojlantirishda quyidagi muammolar mavjud:

✚ *xalqaro sifat standartlari (iso, global gap)ni to'liq joriy etishning yetarli darajada emasligi;*

✚ *eksport koridorlarida infratuzilma, servis va transport-logistika tizimlarining rivojlanmaganligi;*

✚ *mexanizatsiya darajasining pastligi va hosildorlikning nisbatan kamligi;*

✚ *logistika tizimi va eksportga ko'maklashuvchi konsalting, servis va infratuzilmaning yetarli rivojlanmaganligi.*

Eksportning hajmi va geografik yo'nalishlari. O'zbekistonda yetishtirilgan meva-sabzavotlar 50 ga yaqin mamlakatga eksport qilinadi: Ispaniya, Italiya, Livan, Vetnam, Gollandiya, Isroil va Chexiya kabi mamlakatlar;

✓ *jahon bozorida meva-sabzavot savdosi 205 milliard dollarni tashkil etadi, o'zbekiston ulushi hanuz 1%dan kam;*

✓ 2020 yilda meva-sabzavot eksporti 2,5 mlrd dollarga, 2021–2023 yillarda esa 5 mlrd dollarga yetkazish imkoniyatlari mavjud;

✓ mdh mamlakatlari, ayniqsa rossiya, qozog‘iston va ukraina, geografik yaqinligi va talab yuqoriligi tufayli strategik eksport yo‘nalishlari sifatida ahamiyatli.

Agrosanoat majmuasida yekin maydonlari va logistika imkoniyatlari 2016–2020 yillarda yekin maydonlari optimallashtirildi:

- ✚ kartoshka – 36 ming ga,
- ✚ sabzavot – 91 ming ga,
- ✚ intensiv bog‘lar – 18 ming ga,
- ✚ ozuqa ekinlari – 50,3 ming ga,
- ✚ moyli ekinlar – 14 ming ga,
- ✚ uzumzorlar – 11,2 ming ga.

Bu qadamlar meva-sabzavot eksporti uchun xomashyo bazasini mustahkamlab, korporativ logistik tizimning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti va korporativ logistik tizimlarni rivojlantirish masalalari respublikamizda strategik ahamiyatga ega. O‘zbekistonning agrar va geografik imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali eksport hajmini oshirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni ta‘minlash mumkin.

Samarali korporativ logistikadan foydalanish ahamiyati: Korporativ logistik tizimlar nafaqat mahsulotlarni o‘z vaqtida va nobudgarchiliksiz yetkazib berishni ta‘minlaydi, balki meva-sabzavot eksporti bilan shug‘ullanuvchi korxonalarning xarajatlarini kamaytirish, marketing va savdo strategiyalarini optimallashtirish, tashqi bozor kon‘yunkturasi va raqobatchilar to‘g‘risida axborotlar bilan doimiy ta‘minlash imkonini beradi. Bu esa korxonalarning samaradorligi va iqtisodiy barqarorligini ta‘minlaydi.

Infratuzilma va transport-logistika sohasini takomillashtirish: Mahalliy va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni ta‘minlashda transport infratuzilmasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Yangi transport yo‘laklari, intermodal logistika markazlari va integratsiyalangan logistik xizmatlar xarajatlarni kamaytiradi va eksport jarayonlarining tezligi va samaradorligini oshiradi. Shu maqsadda Navoiy, Angren, Toshkent, Termiz va Pop logistika markazlari tashkil etildi, ular mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash va eksportga tayyorlash jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi. Ammo, infratuzilma va servis xizmatlarining rivojlanish darajasi talab darajasida emasligi, tariflar yuqoriligi va logistika markazlarini muvofiqlashtiruvchi idoralarning yo‘qligi muammolarni yaratadi.

Mahsulot sifati va standartlari: Meva-sabzavot eksportida mahsulot sifati va xalqaro standartlarga muvofiqlik muhim omil hisoblanadi. ISO va Global GAP standartlarini to‘liq joriy etish, fitosanitariya va ekologik talablarga rioya qilish eksport hajmini oshirishda asosiy shartdir. O‘zbekiston mahsulotlari vitaminlarga boy va nozik ta‘mli bo‘lib, raqobatbardoshligi yuqori, lekin bu imkoniyatlardan to‘liq foydalanish uchun sertifikatlash va standartlashtirish jarayonlari ham rivojlantirilishi kerak.

Xavf va kamchiliklarni bartaraf etish: Korporativ logistik tizimlarni rivojlantirishdagi asosiy xavflar:

Mexanizatsiya va hosildorlik darajasining nisbatan pastligi;

Logistika va konsalting xizmatlari infratuzilmasining yetarli rivojlanmaganligi;

Eksport yo'nalishlarida bir yoki ikki mahsulot turiga bog'liqlik, bu esa narx pasayishi yoki talab qisqarishida korxonalar uchun moliyaviy xavf yaratadi. Bu muammolarni bartaraf etish maqsadida eksport tarkibini diversifikatsiya qilish, yangi bozorlarga kirish va korporativ logistik platformalarni innovatsion modellar asosida rivojlantirish zarur.

Strategik takliflar: Milliy iqtisodiyotda korporativ logistika platformasining innovatsion modelini ishlab chiqish va uni eksport-import, tranzit va mahalliy aylanma uchun integratsiyalashtirish;

Mahalliy tadbirkorlik sub'ektlarini logistik oqimlardagi ustuvorliklari va samaradorlikini aniqlash maqsadida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish;

Transport infratuzilmasini takomillashtirish va yangi transport yo'laklari, intermodal logistika markazlari tashkil etish;

Sifat standartlari va xalqaro sertifikatlashtirishni keng joriy etish, fitosanitariya va ekologik talablarni ta'minlash;

MDH va geografik yaqin eksport yo'nalishlariga e'tibor qaratish orqali logistik xarajatlarni kamaytirish va bozorni diversifikatsiya qilish.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасида мева – сабзавот маҳсулотларини сақлаш ва қайта ишлаш тизимида мавжуд муаммолар ҳамда уларнинг ечими // “Бизнес-эксперт” журналининг 2018 – йил 9 – сонда чоп этилган. С.А.Салихов
2. Салимов Б.Т., Юсупов М.С. Ўзбекистонда мева-сабзавот маҳсулотлари етиштириш ва экспорт қилишни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш йўналишлари. Илмий мақола. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 4, 2015 йил июль-август
3. Хо'jaev F.E., Po'latxo'jaeva D.M., Aytieva S.A. “XALQARO LOGISTIKA”. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2019 yil. 231 bet.
4. Englund, T. R., Zhou, M., Duffey, K. J., & Kraak, V. I. (2020). A Qualitative Study to Understand Stakeholders' Views About the Fruits & Veggies (FNV) Social Marketing Campaign to Promote Fruit and Vegetable Consumption in the United States. Journal of the Academy of Nutrition and Dietetics.
5. Джеймс С.Джонсон, Дональд Ф.Вуд, Дэниел Л.Вордлоу, Поль Р.Мерфи-мл. Modern logistics (Современная логистика). Учебное пособие. – М.: “Вильямс”, 2015
6. Mastering import and export management, Thomas Cook, Kelly Raia, 2017, ISBN 9780814438213
7. Export-Import And Logistics Management, Usha Kiran Rai, ISBN 9788120340169
8. Import/Export: Guidelines for International Trade Kindle Edition, Sebastian Loppolo, Mirabel Publishing; 3rd edition (January 14, 2018)
9. Декамбаева Римма Владиславовна. Исследование устойчивого потребления и устойчивого маркетинга. «SCI-ARTICLE» 2020.